



SO‘Z MA‘NOSINING KENGAYISHI VA TORAYISHI

Ochilova Sharifa Shuhratovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

email:ozodaozoda263636326@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada so‘z ma‘nosining torayishi va kengayishi haqida fikrlar mavjud. Bundan tashqari so‘z ma‘nosining kengayishi va torayishining til taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati bayon qilingan. Tilda so‘z doimiy emas, vaqt o‘tishi bilan yangi ma‘nolari torayib, ixtisoslashadi. Shu jarayon natijasida tilning leksik boyligi ortadi. Mazkur maqolada semantik kengayish va torayishning sabablari, ularning misollari, tilshunos olimlar: Ferdinand de Sossyur, Vinogradov, A. Potubnya va boshqa shu kabi olimlarning qarashlari asosida tahlil qilingan.*

KALIT SO‘ZLAR: *so‘z ma‘nosi, semantika, kengayishi, torayishi, til taraqqiyoti, leksikologiya.*

АННОТАЦИЯ. *В статье излагаются идеи о сужении и расширении значения слов. Кроме того, описывается роль и значение расширения и сужения значения слов в развитии языка. Слова в языке не являются постоянными, со временем их новые значения сужаются и специализируются. В результате этого процесса увеличивается лексическое богатство языка. В статье анализируются причины семантического расширения и сужения, приводятся их примеры, основанные на взглядах лингвистов: Фердинанда де Соссюра, Виноградова, А. Потубни и других учёных-аналогов.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *значение слова, семантика, расширение, сужение, развитие языка, лексикология.*

ANNOTATION. *This article contains ideas about the narrowing and expansion of the meaning of words. In addition, the role and significance of the expansion and narrowing of the meaning of words in the development of language is described. Words in a language are not permanent, over time, their new meanings narrow and specialize. As a result of this process, the lexical richness of the language increases. This article analyzes the reasons for semantic expansion and narrowing, their examples, based on the views of linguists: Ferdinand de Saussure, Vinogradov, A. Potubnya and other similar scientists.*

KEYWORDS: *word meaning, semantics, expansion, narrowing, language development, lexicology.*

Tilshunoslikda so‘z ma‘nosi - bu so‘z orqali ifodalangan predmet, hodisa yoki tushuncha mazmunidir. So‘z ma‘nosi doimiy emas, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, kengayishi yoki torayishi mumkin. Bu jarayonlar til taraqqiyotining tabiiy hodisasi hisoblanadi.

Soʻz maʼnosining kengayishi (semantik kengayish)- soʻzning dastlabki maʼnosi oʻz doirasidan chiqib, yangi maʼnolarni ifodalash imkoniga ega boʻladi, yaʼni umumlashadi va kengayadi. Masalan: *oyoq* -dastlab odam aʼzosi maʼnosida ishlatilgan, keyinchalik stol oyogʻi, koʻprik oyogʻi kabi kengaygan.

Soʻz maʼnosining torayishi (semantik torayish)- soʻzning maʼnosi ilgari kengroq boʻlgan, keyinchalik maʼlum bir tor doiradagi predmetni ifodalovchi boʻlib qolgan. Misol tariqasida shuni aytishim mumkinki, *don* soʻzi oldinlari har qanday urugʻ maʼnosida qoʻllangan, hozir esa bugʻdoy urugʻi maʼnosida ishlatiladi.

Mashhur olimlardan biri, Ferdinand de Sossyur (1857-1913)-zamonaviy tilshunoslik asoschisi boʻlib, u soʻz maʼnosini til tizimidagi belgilar orqali tushuntirib oʻtgan. U aytadiki,"Til doimo oʻzgarishda boʻladi, soʻz maʼnosi esa bu oʻzgarishlarning eng nozik ifodasidir. Maʼnolar kengayadi yoki torayadi, lekin bu tilning ichki tizimi va ijtimoiy hayot bilan bogʻliq sodir boʻladi. Mening fikrimcha, Sossyurning bu fikri toʻgʻri ,chunki til haqiqatdan ham jamiyat bilan birga rivojlanadi. Soʻz maʼnosining kengayishi va torayishi tilning tirik tizimlarni ekanligini koʻrsatuvchi belgi.

Shunday olimlardan yana biri, A.A. Potebnyaning fikricha:"Soʻz maʼnosining oʻzgarishi-bu fikrning oʻzgarishidir. Til oʻzgaradi, chunki inson dunyoni boshqacha idrok eta boshlaydi". Soʻz maʼnosining kengayishi va torayishi-tilning ichki rivojlanishi va inson tafakkurining oʻsishi natijasi degan fikrdaman.

Demak, soʻz maʼnosining oʻzgarishi-tilning boyishi va yashovchanligining belgisi. Har bir soʻz zamon bilan birga yashaydi, oʻz maʼnosini yangilaydi. Bu esa xalq tafakkurining eng muhim koʻzgasiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Gʻ.Abdurahmonov. A. Hojiyev: "Hozirgi Oʻzbek tili va leksikologiya ".
- 2.A. Nurmonov:"Tilshunoslikka kirish ".
- 3.Ferdinand de Sossyur:"Umumiy tilshunoslik kursi".